

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNISAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o'rtta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni

ixtisoslashtirish markazi
huddudiy xay'at raisi

S. Xakimova

S. Xakimova
2025 y.



«TASDIQLAYMAN»

Respublika o'rtta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni

ixtisoslashtirish markazi
direktori

L. X. Musadjanova

L. X. Musadjanova
2025y.



Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash

Massaj hamshirasi

(sikli bo'yicha ixtisoslashtirish guruhlar uchun)

O'QUV DASTURI

(216-kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVCHILAR:

- F.A.Shokirova Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Qo'qon filiali o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
- A.N.Gafurova Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

TAQRIZCHILAR:

- A.A.Musakulov "Vita kensis neo" med.klinikasi fizioterapiya bo'limi shifokor reabilitolog
- F.S.Maxmudova TDTU ko'p tarmoqli klinikasi Fiziodavolash bo'limi mudiri , oliy toifali shifokor

O'quv dasturi Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 9 » 12 2025.y.

bayonnoma № 6



Pedagogik kengash raisi

L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 12 » 12 2025.y.

bayonnoma № 5

1. Kirish

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, ixtisoslashtirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19 may 2021 yildagi "O'zbekiston Respublikasida horijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari" PQ-5117 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o'quv fanining mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. "Massaj hamshirasi" o'quv dasturi yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, hamshiralarni 216 kredit ixtisoslashtirish uchun mo'ljallangan. Dastur fanlar modullariga ajratilgan bo'lib: kasbiy rivojlanish modulida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xodimlarning bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish haqida" 255-sonli buyrug'i ijrosini bajarish maqsadida "Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish"moduli kiritildi. Kasbiy rivojlanish moduli ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm-fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy ta'limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan. Dasturda davolash profilaktika muassasalari bo'limlarida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan o'rta tibbiyot xodimlari lozim bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni (bilishi mumkin, bilishi lozim, bajara olishi kerak va qaysi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozim) yetarli darajada o'zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

1.1. Maqsad:

Massaj hamshirasini davolash profilaktika muassasalari bo'limlarida faoliyat olib borishdagi bilimlarini zamonaviy, innovatsion, dalillarga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlar bilan ularning malakaviy xarakteristikasiga mos holda o'qitish. O'qish natijasida o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarini

takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash. O'rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, shu bilan bir qatorda ularga hamshiralik ishi mohiyati, uning sog'liqni saqlash tizimidagi o'ziga xosligi, normativ huquqiy hujjatlar bilan ishlash, aholiga sifatli tibbiy yordamini ko'rsatish, bemor hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash.

1.2. Vazifalar:

- Ixtisoslashtirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va amaliyotda sog'liqni saqlash bo'yicha asosiy qonunlarni, amaldagi me'yoriy hujjatlarni hamshiralarning ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar, tibbiyot sohasidagi yangiliklar, standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlarini shakllantirish;
- aholi salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash tibbiy yordamga muhtoj bemorlarni zamonaviy massaj usullari bilan davolash;
- inson hayotiga xavf soluvchi holatlarni kamaytirish, tibbiy yordam ko'rsatish chora tadbirlari, hozirgi kunda qo'llanilayotgan zamonaviy massaj usullari to'g'risida ma'lumot olish;
- davolovchi massajni asosiy turlari, usullari bilan tanishtirish, kasalliklarni oldini olish maqsadida qo'llash, barcha turlari bo'yicha nazariy va amaliy bilimga ega bo'lish;
- davolovchi massajni turli kasalliklarda shifoxona, shifomaskani va ambulator sharoitida bemorlarni tibbiy rehabilitatsiyasida qo'shimcha noa'naviy davolovchi tadbirlarni birgalikda qo'llanishini o'rgatish;
- hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumot olish;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
- profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o'rgatish;
- massajning organizmga fiziologik ta'sir etishi mexanizmi va uning mohiyatini o'rganish;
- ish qobiliyatini tiklash, faollikni uzaytirishga yordam berish;
- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda bemor ahvolini baholash, asoratlarni oldini olish chora-tadbirlarini qo'llay olish;
- bemorlar hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dasturi Respublika davolash profilaktika muassasalari turli yo'nalishlarida faoliyat olib borayotgan, keyinchalik reabilitatsiya bo'limlarida faoliyat olib borishni rejalashtirgan, tibbiyot kollejini "Davolash ishi", "Hamshiralik ishi" va "Akusherlik ishi" yo'nalishlari bo'yicha mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- Tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notiqlik san'atining asoslarini amaliyotda qo'llay olishi;
- amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan ishlash, soha bo'yicha zamonaviy yutuqlardan xabardor bo'lib, uni amalda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishi;
- kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va ularni amalda qo'llay olishi;
- kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish, sog'lom psixologik muhitni yarata olish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida ang'lay olish va bartaraf eta olish;
- kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish;
- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

"Massaj hamshirasi" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashtirishda hozirgi davr talablariga mos ravishda zamonaviy, malakali sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Sog'liqni saqlash sohasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarni (O'zbekiston Respublikasining qonunlari, texnik reglamentlar, xalqaro va milliy standartlar, buyruqlar, tavsiyalar, terminologiya, xalqaro birliklar tizimlari, amaldagi xalqaro tasniflar), shuningdek, sifat va ish faoliyatini baholash uchun hujjatlardan foydalanish imkoniyati va yordamini ko'rsatish, ularning tarkibiy bo'linmalari faoliyatini tahlil qilish, zamonaviy tibbiy-tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy texnologiyalarning aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish va samaradorligini baholash. O'rta tibbiyot xodimlarining zararsizlantirish muolajalariga o'rgatish talab qilinadi. O'quv dasturining dolzarbligi amaliyotga asoslangan va muammolarga yo'naltirilgan yondoshuv asosida amaliy tibbiy yordamning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv materiallari va jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimining va mutaxassislikning o'ziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan.

1.6. Dastur hajmi: 216 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy / a'naviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. Malaka oshirishdan so'ng beriladigan hujjat: o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Massaj hamshirasi" yo'nalishi bo'yicha 216 kredit ixtisoslashtirishdan o'tganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim (natijalari)dan so'ng tinglovchi kompetensiyasi:

- o'rta tibbiyot xodimining fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- aholi sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash doirasida aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarni olib borish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish;
- aholi salomatligini mustahkamlash, sog'lomlashtirish, davolash va profilaktikasi asoslari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshadi;
- reabilitatsiya davomida bemorlarni ahvolini baholash ko'nikmalari yangilanadi;
- reabilitatsiyaga tegishli me'yoriy hujjatlarni sifatli yuritadi;
- tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, patsiyentlar va ularning yaqinlari bilan to'g'ri muloqot qilish;
- shug'ullanuvchining organizmiga jismoniy yuklamaning ta'sirini kuzatish va o'rganish qobiliyati oshadi;
- inson salomatligini saqlash hamda uni tiklashda massajning samarali omillardan biri ekanligini bilish;
- massajni organizmga fiziologik ta'sirini, ularni turli yoshdagi sog'lom odamlarda hamda, bemorlarda qo'llash metodikasini bilimiga ega bo'ladi;
- massajning umumiy, fiziologik va gigiyenik asoslari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshadi;
- davolovchi massajning usullari, ularni texnikasi va metodikasini qo'llay oladi;
- davolovchi massajning asosiy harakat yo'nalishlari ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- davolovchi massajning xususiy usullari va ularni bajarish qoidalari ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- bolalar amaliyotidagi massaj usullarini qo'llash qobiliyati oshadi;
- asosiy va yordamchi usullari va ularni bajarish qoidalari ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- ko'krak yoshidagi sog'lom bolalarda massaj usullari va massajga bo'lgan ko'rsatmalarni bajarish ko'nikmalariga ega bo'ladi;

- ortopedik kasalliklarida o‘tkaziladigan massaj usullarini o‘rganadi;
- jismoniy yuklamalardan noratsional foydalanilganda kelib chiqadigan asoratlarning oldini olish qobiliyati oshadi;
- shoshilinch holatlarni o‘z vaqtida tashxislash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, o‘rnatilgan tartibda hujjatlashtirish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

3. DASTUR MAZMUNI

3.1 “Massaj hamshirasi” 216 kredit ixtisoslashtirish kursi dasturi o‘quv rejasi

| № | Modul va mavzular nomi | Kredit | Auditoriya mashg‘ulotlari | | Attestatsiya |
|------------|---|------------|---------------------------|-------------------|--------------|
| | | | Nazariy mashg‘ulot | Amaliy mashg‘ulot | |
| 1.0 | Kasbiy rivojlantirish modullari | 54 | 32 | 22 | |
| 1.1 | Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish. | 6 | 6 | - | |
| 1.2 | Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar | 6 | 2 | 4 | |
| 1.3 | Modul: Xorijiy til | 6 | 2 | 4 | |
| 1.4 | Modul: Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me‘yoriy hujjatlar. | 6 | 6 | - | |
| 1.5 | Modul: Infeksion nazorat | 6 | 4 | 2 | |
| 1.6 | Modul: Shaxslar o‘rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat | 6 | 4 | 2 | |
| 1.7 | Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik | 6 | 2 | 4 | |
| 1.8 | Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish. | 12 | 6 | 6 | |
| 2.0 | Mutaxassislik fan modullari | 156 | 56 | 100 | |
| 2.1 | Modul: Massaj, massajning organinizmga ta’sirlari. Massaj turlari. | 12 | 4 | 8 | |
| 2.2 | Modul: Massajning anatomik asoslari. Odam tanasining tuzilishi. | 12 | 4 | 8 | |
| 2.3 | Modul: Davolovchi massajning usullari, ularni texnikasi va metodikasi. | 36 | 12 | 24 | |
| 2.4 | Modul: Massaj turlari va vositalari. | 36 | 12 | 24 | |
| 2.5 | Modul: Massaj tasnifi. O‘ziga xos uslublari. | 12 | 8 | 4 | |

| | | | | | |
|-----|--|------------|-----------|------------|----------|
| 2.6 | Modul: Sport sohasida qayta tiklovchi massaj turlari va yordamchi vositalar. | 18 | 6 | 12 | |
| 2.7 | Modul: Bolalar amaliyotidagi massaj | 30 | 10 | 20 | |
| | Attestatsiya | 6 | | | 6 |
| | Jami: | 216 | 88 | 122 | 6 |

“Massaj hamshirasi” ixtisoslashtirish kursi o‘quv modullarining mazmuni

1.1.Modul. O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim.Islohotlar markazida “Inson qadri uchun”degan ezgu tamoyil ustuvor.Yurtimizda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o‘rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar.

Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.

“Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda sog‘liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo‘nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas’uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma’lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

1.2.Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar. Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. "Tibbiyot informatikasi asoslari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;

hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

1.3. Modul. Xorijiy til. Ingliz tilini o'qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot xamshiralarga ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot soxasiga aloqadorligini tushuntirish xamda shu soxaga oid terminlarni o'rganish. Ingliz tili alifbosidagi xarflar va asosiy qo'llaniladigan terminlar. The verb "to be", "to have" Introducing yourself. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Berilgan qo'llanmalardan foydalangan xolda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish

1.4. Modul. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar. Sog'liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog'liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo'nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to'liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog'liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog'liqni saqlash tizimidagi me'yoriy hujjatlar.

1.5. Modul. Infeksiyon nazorat. Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infeksiyon nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epidemiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va me'yorlari bo'yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va yo'q qilish.

Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O'ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma'lumot.

Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish. SanQvaM bo'yicha joriy va mukammal tozalash o'tkazish. Qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibi.

1.6. Modul. Shaxslar o'rtasidagi muloqot va tibbiy maslahat Jamiyat va bemorning salomatligi yo'lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko'rsatish. Bemorga diqqat e'tibor va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va o'zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyjanob an'analarini saqlash. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sezilarli e'tibor tibbiyot xodimlarining kasbiy ko'nikmalariga, bemorlar bilan ularning gender va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga qaratilmoqda. Genderning salomatlikka ta'siri. Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to'g'risida tushuncha. Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg'ulariga rioya qilish. Neytral va xavfsiz muhitni yaratish. Salbiy munosabat va fikrlardan qochish. Tibbiy maslahatni hurmat va e'tibor bilan boshlash. Faol tinglash va empatiya. Tushunarli tildan foydalanish. Tibbiyot xodimining bemor bilan muloqot qilish qobiliyati. Muloqot ko'nikmalarining turlari va ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatning asosiy tuzilishi va ko'nikmalarning o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatni tartiblashtirish. Noverbal tildan foydalanish. O'zaro tushunishga erishish: bemorning holatini inobatga olish. Samarali muloqotning xususiyatlari

1.7. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik. Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini

to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

1.8. Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish. Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (trijaj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni (nafas, puls, ong, AD) aniqlash. Birlamchi tekshiruv (ABC algoritmi). Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Terminal holat. Terminal holat bosqichlari. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

Tez tibbiy yordam chaqirish tartibi. Travmalar va o'tkir holatlarda birinchi yordam ko'rsatish tamoillari. Qon ketish turlari va jgut qo'yish. Sinish, chiqish, immobilizatsiya. Shok holati. Kuyish, cho'kish sovuq va issiqlik urishi. Transportirovka qoidalari.

2.1 Modul. Massaj, massajning organizmga ta'sirlari. Massaj turlari. Massaj haqida tushuncha. Massaj fanining qisqacha rivojlanish tarixi. Massajning organizmga fiziologik ta'sir etishi mexanizmi va uning mohiyati. Massajning umumiy fiziologik va gigiyenik asoslari. Massaj turlari: (gigiyenik massaj, sport massaji, davolovchi massaj, segmentar - reflektor massaj, nuqtali massaj, kosmetik massaj, "quruq" massaj, "antitsellyulitli" massaj, umumiy massaj, mahalliy massaj, bolalar massaji, klassik massaj) va boshqa massaj turlarining qo'llanishi, ahamiyati. Massaj muolajasini o'tkazish xonalari va ularning jihozlanishi. Massaj o'tkaziladigan xona va inventarlarga talab, massajchiga qo'yiladigan talab, ishlash rejimi, bemorga qo'yiladigan talablar, massaj qabul qilishga bo'lgan ko'rsatmalar va mone'liklar. Massajchining ish faoliyati, massaj hamshirasining vazifalari.

2.2. Modul. Massajning anatomik asoslari. Odam tanasining tuzilishi.

Massajning anatomik - fiziologik asoslari. Insonning organ va tizimlariga massajning fiziologik ta'sir etishi. Odam tanasining anatomik tuzilishi. Odam skeletining tuzilishi haqidagi umumiy ma'lumotlar. Umurtqa pog'onasining segmentlarga bo'linishi. Umurtqa pog'onasining fiziologik egriliklari haqida tushuncha. Bo'g'imlar va ularning tuzilishi. Mushaklar va ularning guruhlarini, tuzilishi, joylashishi. Tanadagi muhim ichki a'zolar (proyeksiyasi)ni aniqlash. Massajning organizm to'qimalariga mexanik ravishda ta'sir qilishi. Alohida anatomik a'zolarining massaji. Massaj qabul qiluvchini holatiga qarab, massaj qilish qoidalari.

2.3 Modul. Davolovchi massajning usullari, ularni texnikasi va metodikasi.

Davolovchi massaj usullarini to'g'ri qo'llash to'g'risida zamonaviy tushunchalar. Davolovchi massajning maqsad va vazifalari. Davolovchi massajning umumiy usullari. Davolovchi massajning qo'llanilish samaradorligi. Davolovchi massajga

qo'yiladigan gigiyenik talablar. Davolovchi massajning asosiy harakat yo'nalishlarining tasnifi. Massajni xususiy usullari (kosmetik massaj, gigenik massaj, sport massaji nuqtali massaj) va ularni bajarilish qoidalari. Massaj oluvchining holati. Umumiy massajni bajarish qoidalari. Davolovchi massajni fizioterapevtik muolajalar va dori moddalarini birgalikda qo'llanilishi. Segmentar-reflektor massaj,uning xususiyatlari. Turli xil kasalliklarda davolovchi massajning qo'llanilishi ularga bo'lgan ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Nuqtali massajning o'ziga xos xususiyatlari. Nuqtali massajni qo'llanilishi ularga bo'lgan ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Kosmetik massaj, turlari va qo'llanilishi. Massajni amalga oshirish metodologiyasi. Massajni o'tkazishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.

2.4 Modul. Massaj turlari va vositalari. Inson organizmini fiziologik va patologik holatini hisobga olgan holda massajni turi (fin, shved va sharqiy massaj) va usullari. Massajning asosiy va yordamchi turlari. Asosiy usullar (silliqlik silash, ushlab silash, uzluksiz va uzuq-uzuq, yuzaki, chuqur silashlar). Yordamchi usullar (ohista silash, haskashsimon, zanjirsimon, qisqichsimon va tojsimon silashlar). Massaj usullarining fiziologik ta'siri, bajarish texnikasi va uslubiyati. Organizmga massajni fiziologik ta'siri Zamonaviy massaj apparatlarini tuzilishi. Massaj muolajasini o'tkazishdan oldin unga nisbatan bo'lgan ko'rsatmalar va mone'liklar. Ishqalashning asosiy va yordamchi usullari. Ishkalashning yordamchi usullari. Ezishning fiziologik ta'siri, asosiy usullari. Ezishning yordamchi usullari. Ezish usullarining umumiy texnikasi. Ezish usullarini bajarayotganda uchraydigan xatoliklar. Ezishning asosiy va yordamchi usullarini qo'llashda ko'rsatma va mone'liklar. Silashning asosiy usullarini qo'llash.

2.5. Modul. Massaj tasnifi. O'ziga xos uslublari. Davolovchi massaj tasnifi, o'ziga xosligi. Usullarni to'g'ri qo'llashda zamonaviy tushunchalar. Vibratsiya uzuq-uzuq tebranishlar, vibratsiya usullari va ularni bajarilishi. Massajni amalga oshirish metodologiyasi. Tayanch-harakat sistemasi a'zolarining kasalliklarida massajni qo'llanilishi. Bo'g'im kasalliklarida massajni qo'llanilishi. Muskul tizimi patologiyalarida massajni qo'llanilishi. Markaziy va periferik nerv sistemasi a'zolarining kasalliklaridagi massajni o'rni. Sezgi sistemasi a'zolarining kasalliklaridagi massaj (Esteziologiya). Qariyalarda yoshiga qarab davolovchi massaj o'tkazishni uziga xosligi, qariyalar turli xil kasalliklarida davolovchi massaj usullarini to'g'ri tanlash.

2.6. Modul. Sport sohasida qayta tiklovchi massaj turlari va yordamchi vositalar. Start oldi holati massaji, uning ahamiyati, turlari. Sportchilarda musobaqadan oldin va musobaqadan keyingi massaj usullari. Tinchlantiruvchi massaj usullari va ularning ta'siri. Sport massajini sportchilarning funksional holatini, sport formasini yaxshilash, jismoniy ish bajarish qobiliyatini oshirish, jarohat va tayanch-harakat apparati kasalliklarining oldini olish uchun qo'llash. Jismoniy va ruhiy hayajonli holatlarni oldini olish. Tinchlantiruvchi massaj usullarini amalga oshirish metodologiyasi. Segmentar massaj, nuqtali massaj va ularning ta'siri. Segmentar massaj, usullari, qo'llanilishi. Tana haroratini pasaytiruvchi nuqtali massaj usulini qo'llanilishi. Zamonaviy massaj turlari:

gidromassaj, kriomassaj. Suvda bajariladigan qo‘l massajini o‘tkazilishi. Muz bilan massaj qo‘llanilishi. Jismoniy va ruhiy hayajonli holatlarni oldini olish. Mehnat faoliyatini mukamallashtirish. Kundalik ish qobiliyatini oshirish. Musobaqadan keyingi charchash holatlarini bartaraf etish va tetiklikni tiklash.

2.7 Modul. Bolalar amaliyotidagi massaj. Bolalarda uchraydigan turli kasalliklarni kompleks davolashda massajning tutgan o‘rni. Bolalar yoshiga qarab davolovchi massaj o‘tkazishni o‘ziga xosligi, bolalar turli xil kasalliklarida davolovchi massaj usullari. Bolalar organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlari. Ko‘krak yoshidagi (1yoshgacha) sog‘lom bolalarda massajni qo‘llanishi va uni ta’siri. Bolalarda uchraydigan ortopedik kasalliklarida davolovchi massaj usullarini qo‘llanilishi. Yassi tovonlikda massaj usullarini qo‘llash. Skolioz kasalligida, sonning tug‘ma chiqishida massajni qo‘llanishi, usullari. Raxit kasalligini davolashda umumiy massajning ahamiyati, asosiy vosita sifatida qo‘llanishi. Bolalar nafas kasalliklarida drenajlovchi massaj turlarini qo‘llash. Massajni o‘tkazishdagi gigiyenik sharoitlar. Massajga bo‘lgan ko‘rsatmalar va qarshi ko‘rsatmalar.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA’MINOTI

4.1. O‘kuv bazalari: Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko‘chasi-2, 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

4.2. Mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur jihozlar ro‘yxati:

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o‘tiladigan o‘quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to‘plami bo‘lgan rrt ko‘rinishli ma’ruzalar, ekran, videofilmlar.

Klinik amaliy ko‘nikmalarni mustaxkamlash trening o‘kuv xonasi, mulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo‘yicha turli jadvallar, tasviriy ko‘rgazma va qo‘llanmalar,

4.3. Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-xukuqiy hujjatlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.

2.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining buyruq va meyoriy hujjatlari.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018 yil 7dekabrdagi 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi farmoni.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyovning 2020yil 12noyabrdagi “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020 yil 12noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat

tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

6.O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga karshi kurashish to'g'risida"gi qonuni. 2017 yil 3 yanvar

7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yi 10 noyabrdagi "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 4887-sonli qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrdagi "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4063-sonli qarori.

4.3.2.Asosiy adabiyotlar:

1.Nurmuxamedov Q.A. Massaj: darslik , Toshkent 2014 y.

2.Usmanxodjayeva A.A., Adilov SH.K., Axmedova D.SH. "Shifokor nazorati" fanidan laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy tavsiyalar, Toshkent, 2017 y.

3.Vasilyev V.D., A.A. Usmanxodjayeva "Jismomiy tarbiya va sport bilan shug'ullauvchilarning tizimli mashg'ulotlar tas'iri natijasida inson organizmdagi funksional (nafas, yurak qon tomir va vegetativ nerv tizimlari) holatini baholash" Toshkent. 2012 y. o'quv uslubiy qo'llanma

4.Usmanxodjayeva A.A., Adilov SH.K va boshkalar. "Reabilitologiya va sport tibbiyoti"darslik. Toshkent, "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y.

5.Avdeyeva T.G. Vvedeniye v detskuyu sportivnuyu meditsinu. Moskva: GEOTAR-Media, 2009g.

6.Dubrovskiy V.A.Sportivnaya meditsina: Ucheb. dlya stud. vissh. uchebn. zavedeniy. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS

7.Mirzoyev O.M. "Vosstanovitelniye sredstva v sisteme podgotovki sportsmenov". M. Fizkultura i sport, Sport Akadem Press,

8.Y.Gaziyeva. SPORT TIBBIYOTI usubiy qollanma Toshkent 2021y

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Krasikova I. S. Detskiy massaj. Massaj i gimnastika dlya detey ot rojdeniya do trex let. — 2-ye izd., ispr. i dop. — SPb.: KORONA print, 2000g.

2. Panayev M. S. Osnovi massaja i reabilitatsii v pediatrii/ «Meditsina dlya vas». - Rostov n/D: «Feniks», 2007. - 320 s.

3. Biryukov A.A. Lechebniy massaj. Moskva: «Akademiya», 2007g..

4. Bogolyubov V.M. Kurortologiya i fizioterapiya. M.: Meditsina, 2018g.

4.3.3. Elektron ta'lim resurslari

www.medi.ru,

www.medlinks.ru,

www.medscape.com,

www.medland.ru,

www.med-lib.ru,

www.ksmed.ru/pat/gynecology,

www.medsan.ru,

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar. Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrugi 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» ga asosan o'tkaziladi.